



UMUM O'RTA TA'LIM MAKTABLARI JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Matvapaev Azizbek G'oyibnazar o'g'li

Urganch davlat universiteti,

tayanch doktoranti

matvapayevazizbekg@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7364586>

ARTICLE INFO

Received: 16th November 2022

Accepted: 24th November 2022

Online: 26th November 2022

KEY WORDS

Sport, kasbiy kompetentlik, kognitiv kompetensiya, avtometodik, edukologik integratsiya, jismoniy tarbiya.

ABSTRACT

Bu maqolada bo'lg'usi umum o'rtata'lim maktablari jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi, kognitiv kompetensiyalari avtometodik tarkibi orqali edukologik integratsion rivojlantirish uchun o'rgatish tizimini pedagogik asoslari va kreativ yondashuv qobiliyatini oshirish imkonini beruvchi ma'lumotlar berilgan.

Jahonda jismoniy madaniyatning inson va jamiyatni takomillashtirish omili sifatidagi roli sezilarli darajada oshib bormoqda. Sog'lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya va sport birlashtiruvchi kuch va milliy g'oyaga aylanib, kuchli davlat va sog'lom jamiyat rivojiga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, jamiyat tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasiga xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni tayyorlash sifatiga, ularning kasbiy malakasi darajasiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda shu jumladan ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali oliy ta'lim muassasalari faoliyatini raqobatbardoshligini ta'minlash va ta'lim sifatini oshirish zamonaviy tendensiyalardan biri hisoblanadi. Agar ilgari mutaxassis tayyorlashning asosiy maqsadi texnologik o'sish bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning asosiy kasbiy malakalarini uzluksiz rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish davlatimizning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Ta'lim tizimiga dunyo taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida qaraladi. Uni takomillashtirish va sifatli tashkil qilish, ta'lim oluvchilarga kafolatlangan bilimlar berish mexanizmlarini o'quv-mashg'ulotlar jarayoniga joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda innovatsion texnologiyalarni keng rivojlanganligini inobatga olib undan oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini optimallashtirishga qanday yordam berishi mumkinligini o'rganish zarur. Ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida fanlarni o'zlashtirishni yengillashtirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish tobora kuchayib bormoqda. Ammo "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" fanini o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan,



xususan, mobil texnologiyalardan foydalanish yo'llari va uning samaradorligini pedagogik tajribada asoslash masalalari tadqiq qilinmagan va aynan shu shu yo'nalishdagi izlanishlarning dolzarbligini belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili: Mavzuga doir ilmiy-metodik adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, respublikamizning qator olimlar O.D.Raximov, O.M.Turg'unov, Q.O.Mustafaev, H.J.Ro'zievlar[1] Masofaviy ta'lim texnologiyasi va masofaviy ta'limning didaktik ta'minotini, I.A.Eshmamatov[2] Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagoglarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini shakllantirishni, J.K.Xolodov, B.C.Kuznesov[3], L.P.Matveev, Yu.D.Jeleznyak[4], V.N.Platonovlar[5] Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida jismoniy sifatlar bilan tafakkur rivojlanishini chambarchas bog'liq deb hisoblashgan.

Xorijiy olimlardan ta'lim jarayonida axborotlashgan tizimlarni yaratish, xususan mobil ilovalardan foydalanish masalalari A.Victor, L.Dias, B.J. Retos, D.Parsons, P.Yang, H.Xue, P.Aubusson, S.Schuck, K.Burden, J.Wishart, P.Palička, L.Jakubec, J.Zvoníček, I.M.Poluliashchenkolar tomonidan tadqiq qilingan. Mazkur ilmiy izlanishlarda pedagog kadrlarni tayyorgarligining turli jihatlarini, ya'ni innovatsion va pedagog faoliyatga tayyorgarligi, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari masalalariga alohida e'tibor qaratilgan[6,7,8,9,10,11,12].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida jismoniy va tafakkur rivojlanishida texnik-

taktik yondashuvlar, pedagogik jihatlar, ta'lim metodlari va kasbiy faoliyat tahlili, kasbiy mahoratni rivojlantirishning ahamiyati, ma'naviy qadriyatlardan foydalanish yo'llari o'rganishga ko'proq e'tibor qaratilgan. Lekin, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda yangi usul va uslublarni ishlab chiqish hamda amaliyotda qo'llash masalalari deyarli tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi: Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish yo'nalishlari (pedagogik jarayon, boshqaruvdagi) kiritilgan o'zgarishlarning tavsifi (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan) va ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli) kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan) turkumlangan. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishi, o'quv jarayonini samarali tashkil etishi uning kasbiy pedagogik faoliyati unsurlaridan biridir. Shuningdek, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash va kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ta'lim amaliyotidagi holati o'rganildi.

Tahlil va natijalar: Olib borilgan tadqiqotlar natijasida bo'lg'usi jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun o'rgatish tizimining pedagogik asoslari aniqlandi va ular quyidagicha:



- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarning kognitiv kompetensiyalari muayyan sotsial va shaxsiy ahamiyatli sohada o'quvchi faoliyati tajribasi bilan shartlangan qadriyatli ma'noli yo'nalganlik, bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyatlar shaxsiy xislatlari yig'indisi reproduktiv hamda produktiv jarayonlarni asosiy mutaxassislik fanlari (Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati) mazmuniga singdirish;

- talabalar (bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilar)ning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni motivatsiyaviy, axborotli, tezkorlik va baholovchi komponentlari mustaqil ta'limda kognitiv kompetensiyaning avtometodik tarkibi orqali edukologik integratsion ta'sir ko'rsatish mexanizmlariga ta'sir etuvchi ichki va tashqi pedagogik omillarni aniqlashtirish asosida takomillashtirish;

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisligini bitkazuvchi talabalarning kasbiy kompetentligini pedagogik, evristik masalalarning imitatsiyaviy, tuzilmaviy-funksional va integrativ-refleksiv turlarini mustaqil ta'lim texnologiyalari hamda ijodiy-intellektual topshiriqlar majmuasini ishlab chiqish;

- talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlashtirish modeli refleksiv faoliyatli shakllarni identiv maqsadlar bilan ichki integrallashuv darajasiga hamda integratsiya jarayonlarida qayta aloqani ta'minlash shartlari bo'yicha tashkiliy-pedagogik, funksional va faoliyatli yondashuv orqali takomillashtirish.

Ushbu yo'nalishda olib borilgan izlanishlar natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining keng dunyoqarashga asoslangan kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari va noan'anaviy

uslublari ishlab chiqildi hamda ushbu uslublar bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida dars, amaliy mashg'ulot jarayonlaridagi faoliyatlarini takomillashtirish, keng mulohazaga tayangan holda harakat qilish tizimini yaratish, mavjud muammolarga nisbatan kreativ yondashuv qobiliyatini oshirish imkonini berdi.

Xulosa/Tavsiyalar: Yuqoridagi fikrlarni tizimli tahlil qilib xulosa qiladigan bo'lsak, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining o'qituvchilarida o'quv-bilish faoliyati jarayonida mustaqil bilim, malakalar va tajribani mustaqil egallash qobiliyatlarini rivojlantirish zaruriyati asoslangan. Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati fanini o'qitish jarayonida bo'lajak umum o'rtata'lim maktablari jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kognitiv kompetensiyani rivojlantirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan. Xususan, kasbiy kompetentligini rivojlantirishning bosqichlari (mustaqil oldindan ayta olish, mustaqil loyihalashtirish, mustaqil ta'lim) kognitiv kompetensiya darajalari – me'yoriy, konstruktiv va istiqbolli bo'yicha ajratilgan.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, quyidagilarni taklif qilamiz:

1) "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati" fanini o'rganishda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida evristik jismoniy tarbiya va sport masalalar, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish xususiyatlari va bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga talabalarni tanlash tamoyillarini tahlil qilish va umumlashtirish natijasida turli darajali masalalarni yechish lozim.

2) Jismoniy tarbiya vositalari faoliyat maqsadini almashtirish va ahamiyatli shartlar modelini qurish jismoniy



harakatlar axborotni o'zgartirish, ko'nikma va malakalarni masalani yechish bo'yicha ijro etiladigan harakatlar dasturini tuzishda bajariladigan harakatlarning imkoniyati va maqsadga muvofiqligini asoslash, xatolarni izlash va ularni tuzatish malakalari orqali o'quv-bilish faoliyatini mustaqil boshqarish tajribasini boyitib, kasbiy kompetensiya tarkibiy qismlarini rivojlantirishga imkon beradi.

3) Kasbiy kompetensiyaning rivojlantirish vositalari hamda turli darajali imitatsiyaviy, tuzilmaviy-funksional va integrativ-refleksiv kabi evristik jismoniy tarbiya nazariyasi masalalarini aniqlash orqali umum o'rtata'lim maktablari jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

References:

1. Рахимов О.Д., О.М.Турғунов, Қ.О.Мустафаев, Ҳ.Ж.Рўзиев Замонавий таълим технологиялари. Ўқув қўлланма. Тошкент – 2012 й, -111 б.
2. Эшмаматов И. А. “Замонавий ахборот технологиялари муҳитида педагогларнинг ахборот-коммуникатив компетентлигини ривожлантиришнинг назарий педагогик асосларини шакллантириш” 13.00.01 – Педагогика назарияси. Педагогика таълимотлар тарихи. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2018 й, -48 б
3. Холодов Ж.К., Кузнецов Б.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М.:Издательский центр «Академия», 2000. - 480 с.;
4. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. - М.:Физкультура и спорт, 2000. - 331 с.; Железняк Ю.Д. Теория и методика обучения предмету «Физическая культура»: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. Заведений /Ю.Д.Железняк, В. М. Минбулатов. — М.: Издательский центр «Академия», 2004. — 272 с.;
5. Платонов В.Н. Адаптация в спорте. - Киев, 2013. — 216 с..
6. A.Victor, L.Dias Teaching and Learning with Mobile Devices in the 21st Century Digital World: Benefits and Challenges. // European Journal of Multidisciplinary Studies.- 2017. Volume 2, Issue 5. P-339-344.
7. B.J.Retos Uoportunidades de la tecnología móvil en la educación física. Challenges and opportunities of mobile technology in physical education. Retos: nuevas tendencias en educación física, deporte y recreación. 2020.www.researchgate.net/publication/334625774.
8. D.Parsons The Future of Mobile Learning and Implications for Education and Training, Chapter: 16. Publisher: Commonwealth of Learning Press. 217-229 pp. (2014).
9. P.Yang, H.Xue Research and application of mobile teaching platform. IOP Conf. Series: Journal of Physics: Conf. Series 887 (2017) Beijing Polytechnic, Beijing., P.Aubusson, S.Schuck, K.Burden Mobile learning for teacher professional learning: benefits, obstacles and issues, ALT-J, 2009.-P.233-247.,
10. J. Wishart Use of mobile technology for teacher training. In Mobile learning: Transforming the delivery of education and training, ed. M. Ally, 2009. -P.265-278.
11. Edmonton, Canada: Athabasca University Press., P.Palička, L.Jakubec, J.Zvoníček. Mobile apps that support physical activities and the potential of these applications in physical education at school. 10th INSHS International Christmas Sport Scientific Conference, International Network of Sport and Health Science. Szombathely, Hungary. Volume 11. 2016. S176.



12. I.M.Poluliashchenko. (2020) Professional Training of Future Teachers of Physical Culture as an Important Component of Patriotic Education. International Journal of Innovative Technologies in Social Science. 6(27). doi: 10.31435/rsglobal_ijitss/30092020/7175.